

Mavzu: HOSIL BAYRAMI. OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI

Dars maqsadi:

- oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq global va mahalliy muammolarni tahlil qilish;
- kuzgi tengkunlik va Hosil bayramining tarixiy, ekologik va madaniy jihatlarini anglash;
- fikr yuritish va munosabat bildirish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- tabiat, inson va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlab berish;
- ijodiy va izlanuvchan yondashuvni rivojlantirish;
- ijtimoiy loyiha: biznes reja yaratish;
- turli manbalar bilan ishlash, axborotni saralash va tahlil qilish ko‘nikmasini mustahkamlash.

Kutilayotgan natija:

- o‘quvchi oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasini chuqur tushunib, uning muhimligini misollar orqali asoslab beradi;
- kuzgi tengkunlik va Hosil bayramining tarixiy va madaniy ahamiyatini anglab, ularning milliy qadriyatlarimizdagi o‘rnini bayon qila oladi;
- guruhlarda o‘tkazilgan loyihada faol qatnashib, biznes reja taqdim etadi;
- tabiat ne‘matlaridan to‘g‘ri foydalanish va mehnatni qadrlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi;
- axborot manbalarini tahlil qiladi va ular asosida xulosalar chiqara oladi.

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Mashg‘ulot shakli: aralash (yangi bilim beruvchi, mulohaza yurituvchi)

Kerakli jihozlar: rasmlar, videolavha, doska, quruq meva namunalari (ixtiyoriy), interfaol topshiriqlar, taqdimot.

Asosiy dars mashg‘uloti

1- qism.

Assalomu alaykum qadrli o‘quvchilar! Barchamizga ma‘lumki, davlat mustaqilligini saqlash uchun siyosiy, huquqiy, harbiy asoslar bilan birga iqtisodiy asoslar ham juda muhim hisoblanadi. Xo‘sh, Davlatning iqtisodiy asoslari deganda nimani tushunasiz?

O‘quvchilar javobi.

To‘g‘ri, aytib o‘tilgan javoblar hammasi davlatning iqtisodiy rivojlanishiga, xalqning farovon yashashiga xizmat qiladi. Lekin ular ichida **eng muhimi – bu oziq-ovqat xavfsizligi, zaxirasi** masalasi hisoblanadi. Bugun shu mavzuga alohida e‘tibor qaratamiz.

Keling, mashg‘ulotimiz debochasida guruhlarga bo‘linib olamiz.

O'qituvchi o'quvchilarni she'riy tarzda "Yaxshilik", "Go'zallik" va "Mehr" guruhlariga ajratadi.

Yurtdoshim, bog'ingga bir nihol qada,
Bu nihol nomini YAXSHILIK ata.
Niholing yoniga bir gul ekib qo'y,
Bu gulning nomini GO'ZALLIK deb qo'y.
Gul-u niholingga baxsh etib hayot-
Suv ber va bu suvga MEHR deb qo'y ot.
Sendan kelajakka bog' qolsin, ey do'st,
Bog'ing Vatan degan nom olsin, ey do'st. (E.Vohidov)

Azizlar, hozir **"Mulohaza" usuli** asosida har bir guruhga savollar beriladi. Guruh a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bayon etishadi.

- o Nima deb o'ylaysiz, oziq-ovqat xavfsizligi nima?
- o Hosil bayrami qaysi qadriyatlarimizni ifoda etadi?
- o Kuzgi tengkunlik deganda nimani tushunasiz?

Guruh a'zolari o'zaro kelishgan holda mulohazalarini bildirishadi.

"Yaxshilik" guruhi: har bir insonning sog'lom hayot kechirish uchun yetarli, sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan doimiy ta'minlanganligidir. Bu xavfsizlik davlatning oziq-ovqat zaxiralari, qishloq xo'jaligi salohiyati va aholi turmush darajasi bilan bog'liq. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash — barqaror rivojlanish va xalq farovonligining asosidir. Unga xavf soluvchi omillar: kimyoviy moddalar, kamchiqim ovqatlanish, isrofgarchilik.

"Go'zallik" guruhi: Kuzgi tengkunlik — tabiatdagi muhim astronomik hodisalardan biri bo'lib, har yili 22 yoki 23-sentyabrda sodir bo'ladi. Bu kunda kun bilan tun teng bo'ladi, ya'ni yorug'lik va qorong'ilik vaqtlari taqsimoti bir xil. Kuzgi tengkunlikdan so'ng kuz fasli to'liq boshlanadi, havo soviy boshlaydi, daraxt barglari ranglarini o'zgartirib, tabiat sekin-asta uyqu davriga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Bu hodisa jahon xalqlari tomonidan qadimdan bayram sifatida nishonlab kelingan.

"Mehr" guruhi: Hosil bayrami — dehqonlar va bog'bonlar mehnatiga hurmat ramzi sifatida har yili kuz faslida nishonlanadi. Bu bayramda yig'ilgan hosil namoyish etiladi, xalq o'yinlari, milliy taomlar va konsertlar uyushtiriladi. Hosil bayrami insonlarni mehnatsevarlik, tabiatga ehtirom va rizq-nasibaga shukronalik ruhida tarbiyalaydi. Bu bayramda milliy taomlar va hunarmandchilik ko'rgazmalari tashkil etiladi.

O'qituvchi: Barakalla, haqiqatan ham, har bir davlat o'z xalqining qorni to'q, turmushi farovon bo'lishi uchun oziq-ovqat zaxirasini yaratishga katta e'tibor qaratadi. Ayniqsa, keyingi yillarda global iqlim o'zgarishlari, tabiiy ofatlar, yer va suv resurslari taqchilligi oziq-ovqat yetishtirishda jiddiy muammolarni keltirib chiqaryapti. Shunga qaramay, Davlatimiz rahbari boshchiligida olib borilayotgan sa'y-harakatlar natijasida O'zbekistonimizda o'tgan 2024-yilda 9 million tonna don, 3 million tonnadan ortiq paxta, 16 million tonnadan ziyod sabzavot va poliz, 5 million tonna meva va uzum, 4 million tonna kartoshka, 15 million tonnadan ko'p go'sht va sut, 30 ming tonna pilla yetishtirilgan (taqdimot).

“Infosharh” usuli asosida guruhlarda ishlash davom ettiriladi. Axborotni tanqidiy baholash, fikrlarni shakllantirishni o‘z ichiga oladigan mazkur usulda guruh a‘zolari infografikalar, ya‘ni rasm, jadval, infogramma, diagrammada tasvirlangan ma‘lumotlarni o‘qib tushunishlari va shu asosida 3 daqiqada 5 ta ma‘lumotni A3 shakldagi qog‘ozga yozib, sharhlab berishlari lozim.

□ Infografika sarlavhasi:

"O‘zbekiston 2025: asosiy oziq-ovqat zaxiralari (%)"

■ Qismlar (mahsulotlar)

 Mahsulot	 Foiz
 Bug‘doy	
 Shakar	
 Guruch	
 Un	
 Kartoshka	

Masalan, “Yaxshilik” guruhi berilgan infografikaga tayanib, quyidagi ma‘lumotlarni sharhlab berishi mumkin:

“Yaxshilik” guruhi

1. Bug‘doyning umumiy zaxiradagi ulushi 92.9% bo‘lib, mamlakatdagi eng yirik zaxira mahsulotidir va asosiy don hosili hisoblanadi.
2. Guruch 230 000 tonna yetishtirilib, asosan ichki bozor ehtiyojini qoplash maqsadida parvarishlanadi.
3. Shakarning umumiy zaxiradagi ulushi 3.47% ni tashkil etib, strategik zaxira sifatida saqlanadi.
4. Kartoshka (mahsuloti zaxirasi joriy yilda 1274 tonnani tashkil etgan.
5. Un zaxirasining umumiy ulushi - 0.03%.

Prezidentimiz Farmoni bilan mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi tasdiqlangan. Unda aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, qulay agrobiznes muhitini yaratish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi muhim yo‘nalishlarda bajariladigan ishlar belgilab berilgan.

Bugungi kunda yurtimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarning katta qismi **fermerlar va klasterlar** tomonidan yetishtirilyapti.

Qani kim aytadi, fermer kim? Klaster tizimi nima?

O‘quvchilar javobi

Endi sizning fikrlaringizni umumlashtirib fermer va klaster tushunchalariga ta‘rif beramiz. (*kichik ma‘ruza*)

Fermer xo‘jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik sub‘yektidir. Fermer xo‘jaligi O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy sub‘yekti hisoblanadi.

Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish bilan birga ularni qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilish, sanoat ishlab chiqarishi, xizmatlar ko‘rsatish va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaligidir. Yurtimizda **O‘zbekiston fermerlari kengashi** tuzilgan.

Klaster - bu xom-ashyo yetishtirishdan boshlab to qayta ishlangan tayyor mahsulotni iste‘molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab olgan bir butun tizim (slayd).

Fermer va klasterlardan tashqari shaxsiy tomorqada yetishtirilgan hosil ham oziq-ovqat zaxirasini yaratishda muhim hisoblanadi.

Yurtimizda 5 milliondan ziyod xonadonda 508 ming gektar tomorqa, dehqon xo‘jaliklarida salkam 280 ming gektar yer bor. Bu - oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda eng katta zaxira.

O‘tgan 7 yilda tomorqa egalari va dehqon xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash uchun jami 2,3 trillion so‘m imtiyozli kredit va 265 milliard so‘mlik subsidiya berilgan. Odamlarning ko‘nikmasidan kelib chiqib, 5 ming 145 ta mahalla meva-savzavot yetishtirish, ko‘katchilik, limonchilik kabi yo‘nalishlarga ixtisoslashtirilgan.

Oxirgi uch yilda 260 ming gektar yer aholiga bo‘lib berilgan edi. Tomorqa xizmatlarini yo‘lga qo‘ygan tadbirkorlarga 7 yil muddatga 17,5 foizli imtiyozli kredit ajratiladi. Aholi va dehqonlarning eng namunali loyihalari uchun har yili 20 milliard so‘mlik grantlar e‘lon qilinadi. Bunda 500 ta mahalladagi eng zo‘r loyihaga 40 million so‘mdan grant beriladi.

Shuningdek, dehqon xo‘jaliklarini tashkil yetish uchun 75 ming gektar yer maydonlari 180 ming nafardan ortiq yoshlarga bo‘lib berilgan. Orangizda ana shunday yer olgan aka-opalaringiz bormi? Ular qanday meva-sabzavotlar yetishtirishyapti?

O‘quvchilar javobi

Joriy yildan boshlab, yo‘l, daryo va kanallarga tutash 2 ming gektar yer 10 ming aholi va tadbirkorlarga ekish uchun ijaraga berildi. “Mening bog‘im” loyihasi doirasida byudjetdan 49 milliard so‘m ajratilib, mahallalarda 215 ta yangi bog‘ yaratilyapti. Bu ishlardan ko‘zlangan maqsad ekologiyani asrash va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashdan iborat.

Barakalla, zero, Alisher Navoiy bobomiz:

Bir diram olmoq chekibon dast ranj,

Yaxshiroq ondinki birov bersa ganj,

deya bejiz ta‘kidlamagan. Bu fikrlarni o‘z tomorqasida, o‘ziga biriktirilgan yerida hosil yetishtirib, halollik bilan rizq topayotgan yurtdoshlarimizga nisbatan ham qo‘llash mumkin.

Loyiha ishi: biznes reja tuzish.

Zukko o‘quvchilar! Tasavvur qiling, siz bo‘lajak tadbirkorsiz, davlatimiz oziq-ovqat zaxirasini boyitmoqchisiz. Ana endi turli yo‘nalishlarda klasterlar tuzish maqsadida biznes reja ishlab chiqasiz.

“Yaxshilik” guruhi bog‘dorchilik, “Go‘zallik” guruhi dehqonchilik, “Mehr” guruhi esa parrandachilik bilan shug‘ullanish bo‘yicha biznes reja yaratadi.

Jumladan, “Go‘zallik” guruhi quyidagicha biznes reja tuzib, taqdim etishi mumkin.

 DEHQONCHILIK KLASASTERINI TASHKIL ETISH BO‘YICHA BIZNES REJA	
Maqsad	
Samarali agrosanoat klasterini tashkil etish orqali dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va bozorga chiqarish tizimini yo‘lga qo‘yish.	
Klasterning tarkibiy qismlari	
☐ Asosiy ishtirokchilar: Fermer xo‘jaliklari – asosiy mahsulot ishlab chiqaruvchilar Qayta ishlash korxonalari – mahsulotlarni qadoqlash, tayyor mahsulotga aylantirish Logistika xizmati – saqlash, tashish va tarqatish Moliya institutlari – kredit, investisiya va sug‘urta Ilmiy-tadqiqot markazlari – agrotekhnologiyalar va innovatsiya ☐ Infratuzilma: Sug‘orish tizimlari Sovutkich omborlar Qayta ishlash syexlari Agronom maslahat markazlari	
Klaster joylashuvi	
Viloyat: Navoiy viloyati Tuman: Karmana tumani Mavjud resurslar: sug‘oriladigan yer, suv manbalari, mehnat bozori	
Asosiy faoliyat yo‘nalishlari	
G‘allachilik (bug‘doy, arpa) Sabzavot va polizchilik (kartoshka, pomidor, qovun) Uzumchilik va bog‘dorchilik Organik mahsulotlar yetishtirish	
Moliyaviy reja	
Yo‘nalish - Summa (mln so‘mda)	
Yer tayyorlash	500
Texnika va uskunalar	1,200
Urug‘ va o‘g‘itlar	400
Sug‘orish tizimi	300
Qayta ishlash uskunalari	800
Xodimlar oyligi (1 yil)	600
Boshqa xarajatlar	200
JAMI	4 000
Daromad prognozi (1 yilga)	
Yillik hosil:	800 tonna
O‘rtacha narx:	6,000 so‘m/kg

Jami daromad:	4.8 mlrd so‘m
Taxminiy foyda:	700-800 mln so‘m
Qo‘shimcha imkoniyatlar	
Eksport:	Rossiya, Qozog‘iston, BAA kabi mamlakatlar
Sertifikatlash:	GAP, ISO xalqaro standartlari
Qo‘shimcha qiymat:	quritilgan sabzavot, sharbat, murabbo

Shu tartibda guruhlar o‘z biznes rejalarini taqdimot qilib beradilar.

Aziz bilimdonlar! 2025-yil yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili deb e‘lon qilinganini yaxshi bilasiz. Bu yilda quyidagi ishlarga alohida e‘tibor qaratildi:

- mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko‘chalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish;
- aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish;
- tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash;
- “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o‘zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish;

Qani, kim aytadi, **“yashil iqtisodiyot”** deganda nimani tushunamiz?

O‘quvchilar javobi.

Sizning javoblaringizni umumlashtirib aytadigan bo‘lsak, yashil iqtisodiyot deganda, inson hayoti va sog‘lig‘i uchun zarur bo‘lgan ne‘matlarni atrof-muhit va ekologiyaga zarar yetkazmagan holda ishlab chiqarish tushuniladi. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishdan iborat. Bugungi mavzumizga aloqador yana bir muhim loyiha haqida to‘xtalib o‘tishimiz zarur. Bu **“Yashil makon”** umummilliy harakatidir. **“Yashil makon”** umummilliy harakatida bizning maktabimiz ham faol ishtirok etyapti. Yuqori sinf o‘quvchilari tashabbusi bilan ularga kichik yer uchastkalari ajratilgan. Shu loyihada kim qanday ko‘chat ekdi? Ekkan ko‘chatining bugungi ahvoli qanday? Kim javob beradi?

O‘quvchilar javobi.

Demak, nihol ekish juda muhim, lekin uni parvarishlashga e‘tiborli bo‘lish yanada muhim. Maqollarimizda “Birni kessang o‘nni ek” deb alohida uqtirilgan.

Qadrlil ilm toliblari! Keling, endi sizlar bilan kichik bog‘imizga guruh nomlarimizga mos ravishda “Yaxshilik”, “Go‘zallik” va “Mehr” nihollarini o‘tqazamiz. Yuqoridagi she‘rimizga javoban, albatta, qaysi kasb egasi bo‘lmaylik, qalbimizga yaxshilik, go‘zallik va mehr tuyg‘ularini jo etib, Vatanimizga bizdan faqat ezgulik bog‘i qolishi uchun harakat qilamiz!

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shunday fikrlari bor: **“Ayni paytda biz faqat dehqonchilik bilan kun ko‘radigan mamlakat bo‘lib qolmasligimiz kerak”**. Aziz o‘quvchilar, siz shunday kasb tanlangki, kelajakda yurtimiz taraqqiyotiga qo‘shgan hissangiz tufayli Vatan va ona xalqimiz sizdan rozi bo‘lsin!

Qani, ertamiz egalari, kelajakda qaysi kasbni tanlamoqchisiz?

O‘quvchilar javobi tinglangach, o‘qituvchi kasbga yo‘llab, zamonaviy kasblar haqida ma‘lumot beradi.

O‘qituvchi: Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti va texnologiya rivoji natijasida yangi kasblar paydo bo‘lmoqda. Aytish mumkinki, raqamli dunyoda IT-muhandis, veb-dizayner, kiberxavfsizlik mutaxassisi, robototexnika mutaxassisi va grafik dizayner kabi zamonaviy kasblarga tobora talab ortmoqda. Shu bilan birga, bugun hayotimizda logistika va marketing sohalaridagi mutaxassislar ham juda muhim o‘rin tutadi.

“Sinkveyn” usuli. “Yaxshilik” guruhi dasturchi, “Go‘zallik” guruhi veb-dizayner, “Mehr” guruhi esa kontent-menejer kasblari bo‘yicha sinkveyn tuzadilar.

Sinkveyn – bu mavzuga doir g‘oya va his-tuyg‘ularni qisqa, muayyan strukturada ifoda etish usuli. U tez fikrlash, tahlil qilish va qisqa ifoda qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Sinkveyn tuzish tartibi (5 satr)

1-satr — 1 ta so‘z: mavzuning nomi (odatda, ot)

2-satr — 2 ta so‘z: mavzuni ifodalovchi 2 ta sifat

3-satr — 3 ta so‘z: mavzuga oid 3 ta fe‘l (harakat)

4-satr — 4-5 ta so‘zdan iborat tuyg‘u yoki munosabatni ifodalovchi ibora

5-satr — 1 ta so‘z: mavzuga sinonim yoki xulosa

Namuna: **Dasturchi kasbiga sinkveyn tuzish**

- 1. Dasturchi**
- 2. Zehnli, ijodkor**
- 3. Kodlaydi, tahlil qiladi, yaratadi**
- 4. Muammolarga yechim topadi, dasturlar yaratadi**
- 5. Mutaxassis**

Mashg‘ulot davomida guruhlarini mevalar bilan rag‘batlantirib borish mumkin. Qaysi guruh savatida ko‘p hosil to‘plansa, shu guruh dars g‘olibi bo‘ladi.